

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Alisher UMAROV
Ayubxon RADJIYEV
Boris BLYAXER
Risboy JO'RAYEV
Rustem REIMOV
Lola MO'MINOVA
Sherzod SHERMATOV
Sharibboy ERGASHEV
G'ayrat SHOUMAROV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-
pedagogik
respublika tashxis markazi

Jurnaldan ko'chirib bosilganda
«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

- 2 **R.M.ABDULLAYEVA**. Amaliyotchi psixolog ishining qoidalari va etik tamoyillari
- 3 **M.A.IBRAGIMOV**. Imkoniyati cheklangan bolalar iqtidorini namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari
- 4 **O.U.AVLAYEV, H.M.MIRQOSIMOVA, M.S.VALIYEVA**. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini o'rganish usullari
- 8 **N.X.XOLYIGITOVA**. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni o'stirish texnologiyalari
- 9 **B.B.BAYMETOV**. Uzlaksiz ta'lim tizimida "pedagogik ta'lim innovatsion klaster" texnologiyalarining o'rni
- 11 **SH.A.SADIKOVA, S.SH.XAKIMOVA**. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish
- 12 **F.A.CHORIYEV**. Kreativ tafakkur rivojlanishining psixologik omillari
- 13 **F.B.ABDIYEVA**. Raqamli iqtisodiyotning sanoat tarmoqlaridagi o'rni yoshlarga yetkazish usullari
- 15 **F.T.EGAMBERDIEV**. Sportchilarda irodaviy sifatlarini shakllantirishning psixologik jihatlari
- 16 **CH.R.ORZIQULOVA**. Xalq ta'limi tizimidagi rahbar ayol imidjining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
- 17 **F.B.BAYJONOV**. Oilada o'spirinlarda gender tengligi masalalari
- 19 **F.A.INOGAMOVA**. Yosh pedagoglarning jamoaga moslashuvining ijtimoiy psixologik asoslari
- 21 **D.R.XOJIMATOVA**. Globallashuv sharoitida yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning dolzarb jihatlari
- 22 **B.K.MUXAMMADSADOV, J.E.PARABOYEV, R.B.DAMINOVA**. Robototexnika o'rganishda harakatli mexanizmlarni loyihalash
- 24 **X.E.USMANOVA**. O'quvchilar uchun ijtimoiy treninglar
- 27 **G.X.JUMASHEVA, J. KARLIBAYEVA**. Tarbiyachi kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni
- 28 **N.O.ESHONQULOV**. Huquqiy bilimlarni oshirish ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir
- 30 **M.A.RASULXO'JAYEVA**. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari
- 33 **D.B.QOSIMOVA**. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida noan'anaviy o'yinning ahamiyati
- 34 **D.A.CHORIYEVA**. Umumiy o'rta ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashxis qo'yish muammosining amaliy ahamiyati va nazariy tahlili
- 36 **N.YA.QURBONOV**. Malaka oshirish tizimida maktab o'qituvchisining kasbiy-ijodiy kompetentligini oshirish usullari
- 38 **A.A.SULTANOVA**. НПП программирование – как одно из новых направлений в современной психологии
- 39 **Г.ЖУМАШЕВА, З.АЖИМОВА**. Педагогические основы воспитания детей в национальном духе в дошкольных образовательных учреждениях
- 41 **Q.Q.XAYITOV**. Mutaxassislikka qayta tayyorlov jarayonining ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari
- 42 **O.XUDOYOROVA, D.M.XAKIMOVA**. Maktab va hayot – yosh avlodning ijtimoiy faolligini oshirish ustaxonasi sifatida



– o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilimlar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qay darajada xizmat qilishini aniqlash.

O'quvchilarni faol o'ylash jarayoniga kiritish, muammoli vaziyatni yechish, mantiqiy jarayonlarni oqilona hal etishga o'rgatish bilim o'zlashtirishda ijobiy natijalarga olib kelishi muqarrar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson narsa emas. Bu muayyan yosh davrida tugallanishi va unutilishi mumkin bo'lgan masala ham emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo'llar yo'q. Biroq, o'qitish shartlarining muayyan to'plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlovchilarni tarbiyalash mumkin. Jumladan, quyidagi shartlarga alohida e'tibor berish zarur:

- Tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish.
- O'quvchilarga fikrlash imkoniyatini berish.
- Turli g'oya va fikrlarni qabul qilish.
- O'quv jarayonida o'quvchilarning faol qatnashishlariga imkon berish.
- O'quvchilarni tanqidiy mulohaza yuritishga qodir ekanligiga ishonitirish.

Shu bilan birga, o'quvchilar:

- o'z-o'ziga ishonchni rivojlantirib, o'z g'oya va fikrlarining qimmatini tushunishlari kerak;
- ta'lim jarayonida faol qatnashishlari lozim;
- turli fikrlarni hurmat bilan eshitishlari kerak;
- o'z mulohazalarini shakllantirishga tayyor bo'lishlari yoki undan o'zlarini tiyishlari lozim.

Tanqidiy fikrlash xususiyatlari quyidagilar:

- tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlashdir;
- axborot-tanqidiy fikrlashning boshlanishidir;
- tanqidiy fikrlash savolning qo'yilishi va hal kilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;
- tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;
- tanqidiy fikrlash-ijtimoiy fikrlashdir.

«Sinkveyn» usuli

Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab fikrlarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkoniyati muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o'ylangan tahlilni talab qiladi. Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqeya munosabati bilan yoziladigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishini talab qiladi. Sinkveyn so'zi fransuzcha so'z bo'lib, «besh» degan ma'noni beradi. Demak, sinkveyn 5 qatordan iborat she'rdir.

Sinkveyn yozib chiqish qoidasi quyidagicha:

- A) birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkumiga oid so'z bilan).
- B) ikkinchi qatorda mavzu ikki so'z bilan izohlanadi (sifat so'z turkumiga oid ikki so'z bilan).
- V) uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha xatti-harakatlar 3 so'z bilan tasnif etiladi (fe'l so'z turkumiga oid uch so'z bilan).
- G) to'rtinchi qatorda mavzuga aloqadorlikni ko'rsatuvchi 4 so'zdan iborat gap yoziladi (yoki ibora).

D) beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat mavzu mohiyatiga yaqin so'z (sinonim).

Masalan:

- O'quvchi
- Odobli, tirishqoq
- O'qiydi, bajaradi, izlanadi
- Odobli o'quvchi uyga vazifalarni vaqtida bajaradi.
- Shaxs.

Amaliyotda sinkveyn:

- o'quvchilarning tushunchalar zahirasini baholash vositasi:
- axborotni sintezlash quroli;
- ijodiy ifodalilik vositasi sifatida juda foydalidir.

Tanqidiy fikrlash bilim o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning voqeya, hodisa, borliqni ob'ektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Unda izohlash, taqqoslash, tahlil qilish, qo'llash, muammolarni hal qilish yoki yangi fikr kashfiyotiga alohida e'tibor beriladi.

a) har qanday tanqidiy fikrlash jamiyatning ehtiyoji natijasida yuzaga keladi, shakllanadi va ma'naviy-madaniy asoslarga tayanadi. Har qanday tanqidiy fikrlash ijtimoiydir, u insonning odamlar orasidagi faoliyati bilan bog'liq;

b) tanqidiy fikrlash inson faoliyati shakllaridan biridir, ya'ni jamiyatni, ijtimoiy jarayon va hodisalarni tanqidiy ravishda baholash demakdir.

v) o'quvchilarda tanqidiy fikrlash shakllantirilganda, avvalambor ulara bunyodkor g'oyalarni vayronakor g'oyalardan farqlay olishga o'rgatish lozim.

Bundan xulosa qilish mumkinki, o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, o'quvchilar to'qnashishi mumkin bo'lgan muammolar doirasini aniqlashi, so'ngra esa, o'quvchilarni bu muammolarni o'zlarini mustaqil ravishda shakllantirishlariga tayyorlashi zarur. Tanqidiy fikrlash tufayli o'qitish aniq maqsadga yo'nalgan, mazmunli faoliyatga aylanishi hamda bu faoliyat davomida o'quvchilar haqiqiy aqliy ish bajarib, hayotiy muammolarni hal qilishga qodir bo'lishlari lozim. Ularni dalillar asosida matnlarni tahlil qilishga, teng kuchli nuqtai-nazarlarni taqqoslab hamda jamoa imkoniyatlaridan foydalanib, o'zlarini qiziqitirgan savollariga javob topishga undash ta'limni texnologik yondashuvlar asosida qurishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. K.Xoshimov va boshqalar "Pedagogika tarixi" O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi nashriyoti. 2002.
2. N.N.Azizxo'jaeva. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». – T.: 2003.
3. bimm.uz Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bosh ilmiy-metodik markaz sayti manbalari.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA "PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASSTER" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI (TOSHKYENT VILOYATI CHDPI TAJRIBASIDAN)

B.B.Baymetov, Chirchiq davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at" kafedrası professori

В статье акцентируется внимание на важности обеспечения преемственности в системе образования и внедрения технологий «Инновационный кластер педагогического образования» в систему непрерывного образования, в частности, подготовки учителей в области изобразительного искусства.

Ключевые слова и понятия: педагогическое образование, инновационный кластер, членство и преемственность, изобразительное искусство, творчество, сотрудничество.

The article focuses on the importance of ensuring continuity in the education system and the introduction of technologies «Innovative cluster of pedagogical education» in the system of lifelong education, in particular, training teachers in the field of fine arts.

Key words and concepts: teacher education, innovation cluster, membership and continuity, visual arts, creativity, collaboration.

Shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarida namoyon etmoqda. Mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o'zimizning milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati mag'zini chaqish va uni ro'yobga chiqarishga intil-

gan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslanib «milliy tiklanishdan – milliy yuksalish» g'oyasini sobit qadamlilik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bugungi kunda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topmoqda, o'ziga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarining mujassamligi e'tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy



qadriyatlar uyg'un bo'lgan ijtimoiy tafakkur-mamlakatimiz barqaror rivojlanishining mustahkam poydevoriga aylanmoqda.

Ijoiy islohotlarning barcha sohalarga ayniqsa, ilm-fan, san'at sohalariga qaratilayotgani alohida e'tiborga molik. Uning zahirida chuqur ma'no bor. Fan rivojlanar ekan, nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy-madaniy soha ham taraqqiy etadi. Fanga bo'lgan e'tibor inson tafakkurini o'stirish va ulg'aytirishga xizmat qiladi. Jamiyat tafakkuri o'ssa, madaniyat va san'at sohasi ham mana shu talablarga hamohang ravishda o'sadi va taraqqiy etadi.

Mustaqillik yillarida Respublikamizda misli ko'rilmagan ijoiy islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so'nggi yillarda 4-5 yilda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga doir farmon va qarorlar e'lon qilindi. Bugungi kunga kelib Respublikamizda oliy ta'lim muassasalari soni ko'paydi. Respublikamizda yangidan oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. Rivojlangan xorijiy davlatlarning mamlakatimiz bilan hamkorlikda qo'shma oliy ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda.

2017 yil 27 iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3152 sonli Qarori bilan tashkil etilgan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti ham shular jumlasidandir. Oliygo'nah tashkil etish bo'yicha e'lon qilingan Qarorda Toshkent viloyatdagi maktabgacha, o'rta umumiy ta'lim maktablari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tarbiyachilari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ayniqsa, aniq fanlar va chet tillari bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan taminlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy malumotli pedagog kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan [1]. Mazkur oliygohda tayyorlanayotgan barcha yo'nalishdagi kadrlar zamonaviy axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, yuqori bilimlarga ega pedagog-kadrlarni tashkil qiladi.

Bugungi kunda institutda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari faoliyat olib bormoqda. Institut tashkil etilgan yildan boshlab umumta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha fanlardan malakali pedagog kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning bevosita g'oyasi asosida amalioyotga klaster tizimi joriy etilib, iqtisodiyotni rivojlantirish, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va uni qayta ishlashning "zanjirli usuli" yaratildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, klaster va manfaatdorlik O'zbekiston qishloq xo'jaligining kelajagi bo'lsa, xalqimizning intellektual yuksakligi, dunyoda hech kimdan kam bo'lmay yashashi uchun uzluksiz ta'lim tizimiga klaster modelini joriy qilish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biridir.

Darhaqiqat, klaster tizimi barcha sohalarga, shu jumladan ta'lim tizimiga ham aloqadordir. Buni biz tashkil etilganiga endigina to'rt yil bo'layotgan Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti misolida ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda yuqori bilimlarga ega, malakali kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni va pedagoglarning sifatli dars olib borishlarini nazarda tutadi. Bu esa maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirlklarining hamkorlikda faoliyat olib borishlarini talab etadi. Shundagina umumta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha fanlar, shu jumladan tasviriy san'at sohasida ham yetuk rassomlar, yuksak badiiy yetuk yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim omil bo'ladi. Bu esa har bir ta'lim turi uchun alohida va o'zaro uzviylikni o'zida aks ettirgan davlat ta'lim standartlari, fan dasturlari, o'quv adabiyotlarining mukammal tarzda tuzilganligiga bog'liq.

Uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'at fanidan ta'lim sifatini tubdan oshirish bo'yicha ham institutda talaygina amaliy ishlar olib borilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, institut tashkil etilganligining dastlabki kunlaridanoq uning Respublikada o'z nufuzini belgilash, oliy ta'lim muassasalari orasida o'z o'rniga ega bo'lishida institut rahbariyati boshchiligidagi oliygoh jamoasi qo'lni-qo'lga berib mehnat qilmoqdalar. Hozirda institut pedagogik ta'lim innovatsion klaster texnologiyalarini ta'lim jarayonga tadbiiq qilish bo'yicha o'zining "tashrif qog'ozi"ga ega bo'ldi.

Uning asoschisi va targ'ibotchisi bo'lgan institut rektori O'zbekiston fan arbobi, professor G'ofurjon Muxamedov shunday izohlaydi: – "Ta'lim tizimining keyingi chorak asrdagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ko'plab ijoiy ishlar amalga oshirilganiga guvoh bo'lamiz. Shu bilan birga ta'lim turlari o'rtasidagi aloqa va uzviylik ta'minlanishida ayrim kamchiliklar ham kuzatildi. Bu pirovardida maqsadni belgilashdagi tarqoqlikka va ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'ldi. Kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligi, talab hamda

ehtiyojlari to'liq hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning chuqur o'rganilmasligi natijasida kadrlarning hududlar bo'yicha taqsimotida muvozanatning buzilishi kuzatildi. Buning natijasida ayrim hududlarda pedagog kadrlarga ehtiyoj uzoq yillar davomida qondirilmadi".

Institutning barcha kafedralari qatorida "Tasviriy san'at" kafedrasining professor o'qituvchilari ham "Pedagogik ta'lim innovatsion klaster" texnologiyalarini amalga oshirish yo'nalishida o'quv, ilmiy tadqiqot va ma'naviy ma'rifiy sohalarda talaygina ishlarini amalga oshirmoqdalar.

O'tgan 3-4 yilda tasviriy san'at kafedrasida maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'limning uzviylikni hamda uzluksizligini ta'minlash uchun hamkorlik shartnomalarini tuzdi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari, umumta'lim maktab o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish, tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida "Pedagogik-sinergiya" ilmiy-amaliy seminar tashkil etilgan. Seminarlarda "maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalarida faoliyat yuritayotgan kafedra mas'ullarining yilning har choragida amalga oshirgan ishlar, maktablar va maktabgacha ta'lim muassasalariga ko'rsatilayotgan ilmiy-metodik hamkorlik ishlari taxlil qilib boriladi.

"Pedagogik-sinergiya" ilmiy-amaliy seminarining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- tasviriy san'at va chizmachilik fanlaridan ishtirokchilarni pedagogikaning so'nggi yutuqlari bilan tanishtirish;
- tasviriy san'at va chizmachilik fanlaridan maktab o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga yordam berish;
- maktabgacha ta'lim va umumta'lim maktablari o'qituvchi va mu-rabbiylarining fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ilmiy tadqiqot ishlari yuzasidan tajriba sinov ishlarini olib borish;
- ta'lim berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha maslahatlar berish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari, o'rta umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari tizimida tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarining ilmiy tadqiqot ishlariga yordam berish va rahbarlik qilish;
- hamkorlikda respublika va horijiy ilmiy jumallarda maqolalar chop etish;
- soha bo'yicha hamkorlikda uslubiy qo'llanma va darsliklar nashr etish.

– oliy ta'lim muassasalarini yangi tugatib kelgan yosh mutaxassislariga metodik yordam ko'rsatish.

O'tgan birgina 2020 yil davomida tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishda fanning ilg'or yutuqlarini uzluksiz ta'lim jarayoniga qo'llay oladigan yuqori saviyali bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashni takomillashtirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan mavzularda horijiy davlatlarining nufuzli jurnallarida 70 ga yaqin, O'zbekiston Respublikasi OAK ro'yxatidan joy olgan ilmiy jumallarda 40 ga yaqin maqolalar e'lon qildilar. Dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalari va respublika oliy ta'lim muassasalarining ilmiy konferensiyalarida 20 dan ziyod tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishni takomillashtirish, tizimda pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ahamiyatiga qaratilgan mavzularda maqola va ma'ruzalar bilan qatnashdilar.

Bugungi kunga kelib, kafedrada tasviriy san'at, dizayn, amaliy san'at turlari bo'yicha o'ndan ortiq ijodiy to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur ijodiy to'garaklarga shu sohaga qiziqishi bo'lgan barcha yoshdagi o'quvchilar, institutning bakalavriat ta'lim yo'nalishida taxsil oluvchi boshqa talabalar ham qatnashmoqdalar. Buning uchun institut tomonidan barcha shart-sharoitlar hozirlangan, kafedrada malakali pedagog rassomlar jamlangan.

Umuman olganda, Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan olib borilayotgan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri loyihasi ta'lim, fan va ishlab chiqarishni yaxlit tizim sifatida qamrab oladigan ta'lim-ga nisbatan innovatsion yondashuv deb ishonch bilan aytish mumkin. Uning birlashtiruvchi kuchi va g'oyasi pedagog ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini o'zida to'la aks ettirishi bilangina emas, balki amaliy ahamiyati bilan ham e'tirofga loyiq [4].

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017.



2. Muxamedov G.I. "Ta'lim tizimi viloyat salohiyatiga mos emas... Nega?" "Toshkent haqiqati" gazetasi. 2020 yil 19 fevral №15 (13276).
3. Muxamedov G.I. «Pedagogik ta'limda Chirchiq tajribasi». "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2021 yil. 9 mart.
4. Muxamedov G.I., Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif, – T.: O'zMU. 2019.

5. Sultanov X.E., Xo'jamqulov U.N. Tasviriy san'at: pedagogik ta'lim klasteri va uning istiqbollari (Chirchiq davlat pedagogika instituti tajribasi)/ Maktab va hayot ilmiy-metodik jurnali, №7 (147) 2020.
6. Baymetov B.B., Sultanov X.E. Uzlüksiz ta'limda "Pedagogik ta'lim innovatsion klaster" texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati/ Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali. №1-2020.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI ULARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Sh.A.Sadikova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti, p.f.n.
S.Sh.Xakimova, mazkur universitet maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti**

Данная статья освещает вопрос применения педагогических технологий в развитии творческих способностей детей дошкольного возраста.

Ключевые слова и понятия: дошкольное образование, творческие способности, педагогические технологии, игра, деятельность.

This article highlights the issue of the use of pedagogical technologies in the development of the creative abilities of preschool children.

Key words and concepts: preschool education, creativity, pedagogical technologies, play, activity.

Jahon sahnasidagi voqyealar jadal rivojlanayotgan, integratsiya va globalashuv jarayoni faol amalga oshayotgan hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarning yetuk, barkamol, aqlan va jismonan sog'lom, ruh-an kuchli, ma'nan boy bo'lib o'sishlari uchun keng sharoit yaratib berish zarur. Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 11-moddasida "bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi", – deb ta'kidlangan. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya qancha erta boshlansa, uning samarasi shuncha erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim-tarbiya asosan oilada boshlanishi hamda mazkur jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi kelajakda Vatanimiz, jamiyatimiz, oila obro'siga ijobiy ta'sir etishini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur masala bevosita mustahkam oila masalasi aloqadorligi bilan ham ahamiyat kasb etadi.

Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonada bolaning iste'dod zaxirasi-ga mansub xarakter belgilarini barvaqt aniqlash mumkinligi va zarurligi hamda bu xususiyatlar qay darajada bolalarda tarkib topishi, asosan, ota-onalar va tarbiyachilarga bog'liqdir. Oila va maktabgacha ta'lim muassasasining muhiti boladan bo'lajak al-Buxoriy, ibn Sino yoxud Eynsh-teynni yetishtirishi yoki aksincha – Alisher Navoiy, Bobur va Betxoven kabi ijodiy iqtidor sohibini halok etishi mumkin. Bu bolaning iste'dodi yo'qligi tufayli emas, balki aynan ota-ona va tarbiyachining undagi qobiliyatni aniqlash olmaganligi va tarbiyalab, rivojlantirib borishga e'tibor qilmaganligi tufayli sodir bo'ladi. Boladagi iste'dod avvalambor layoqat va qobiliyat shaklida namoyon bo'ladi.

Layoqat – bolaning o'ziga xos ruhiy xususiyati bo'lib, uning samarali faoliyatini belgilab beradi. Lekin layoqatni zinhor bilim, mahorat va ko'nikmalar bilan adashtirib yubormaslik kerak. Layoqatlar faoliyatning yangi usul va vositalarini tez va osonlik bilan o'zlashtirish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, layoqat bir odamni boshqasidan ajralib turuvchi xususiyatlarini ko'rsatuvchi asosiy jihatdir.

Faoliyatning biror turi bo'yicha qo'yilgan vazifani ko'ngildagidek ado etishga aloqador bo'lgan xususiyatlariga layoqatlar deb ataladi. Aksincha, lanjlik, sustlik, qiziqqonlik kabilar layoqat hisoblanmaydi. Va, nihoyat, layoqatlarni mavjud bilim va malakalar bilan ham adashtirmaslik lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'dod avvalambor layoqat va qobiliyat shaklida namoyon bo'ladi. Layoqatlar insonning tug'ma qobiliyatlariga tayyanadi, lekin insonga tayyor holda, tug'ilgan zamonioq berilmaydi, balki muayyan sharoitlarda rivojlanib boradi.

Layoqatlar umumiy (intellektual, kreativ, bilim, ma'lumot ola bilish kabi turlari mavjud) va maxsus turlarga bo'linadi. Maxsus turlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Ijodiy (musiqiy, badiiy, adabiy);
- Muhandislik;
- Kommunikativ (muloqot yuritishga layoqatlilik);
- Ilmiy (matematik, lingvistik va b.);

– Xotira o'tkirligi (eslab qolish layoqati);

– Imajitiv (yorqin, yaxshi rivojlangan tasavvur quvvati).

Bulardan ijodiy, kommunikativ, xotira o'tkirligi, yorqin, yaxshi rivojlangan tasavvur quvvati yoshligidan tez ko'zga tashlanishi mumkin. Lekin odatda ilmiy, muhandislik layoqatlari bolalarda yashirin bo'ladi. Bunday layoqatlar odatda mashg'ulotlar jarayonida ko'zga tashlanadi. Ana shu vaqtda tarbiyachilardan pedagogik mahorat va e'tiborlilik talab etiladi. Bolalarning iste'dodlarini rivojlantirishda mashg'ulotlar jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali usullardan hisoblanib, hozirgi zamon pedagogikasi buni talab etmoqda.

Hozirgi davrda pedagogika sohasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'lib, biz uni o'qitish tizimining axborotlashishi, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ko'rishimiz mumkin. Yangi pedagogik texnologiyalar bolalarga ta'lim berishda, ularga tushuntirishda qulaylik tug'dirib, tushunishga osonlik tug'dirish bilan ham salmoqliqdir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ta'lim – tarbiya berishda "Mariya Montessori" va "IMeN" texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Mana shu texnologiyalarni inobatga olgan holda, hozirgi davrda oliy ta'lim va o'rta-maxsus ta'lim sohalarida keng qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya berishda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. "T", "Kub" texnologiyalarini "Ven" diagrammasi o'quv jarayonida bizga tanish bo'lib, bu texnologiyalarni mashg'ulotlar jarayonida qo'llasak bolalar berilayotgan mavzuni oson o'zlashtiradi va mashg'ulot jarayonida har bir bola faol ishtirok etadi. Ma'lumki, har bir bolaning nimagadir qobiliyati bo'ladi. Mana shu qobiliyatlarini iloji boricha ertaroq aniqlab, to'g'ri yo'naltirishga aynan mana shunday umumlashgan mashg'ulotlar imkon beradi. Chunki mashg'ulotlar davomidagi pedagogik texnologiyalar majmuida bolalar ham o'ylaydi, ham o'ynaydi, ham biladi, ham bilgani tushuntirib beradi.

Yuqorida pedagogik texnologiyalar majmui degan so'zni bejiz ishlatmadik. Sababi mashg'ulotlar jarayonida bir yo'nalishdagi pedagogik texnologiyalardan foydalanib qolmay, balki bir necha yo'nalishdagi pedagogik texnologiyalarni umumlashtirish mumkin. Misol uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi "Tabiat bilan tanishtirish metodikasi" da biz bolalar bilimini tekshirish uchun "T" texnologiyasi bilan "IMeN" texnologiyasini birlashtirdik. Bunda bolalar oldin "T" texnologiyasidan foydalangan holda hayvonlarni uy yoki yovvoyi hayvonlarga ajratishadi, so'ngra aynan mana shu hayvonlar surati tushgan rasmlarga qarab "IMeN" texnologiyasidan foydalangan holda hikoya tuzishadi.

Xulosa o'mida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bolalarning iste'dodlarini erta aniqlashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, uni rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish va iste'dodini namoyon qilishini ta'minlab berish nafaqat biror oila yoki tarbiyachining muvaffaqiyati, balki millatning, jamiyatning va insoniyatning muvaffaqiyati hisoblanadi. Chunki bola aynan shu iste'dodi ko'magida faqatgina jamiyatning yuksalishi uchun emas, balki insoniyatning taraqqiy qilishi uchun ham xizmat qiladi. Shuning uchun ham bolalarni iste'dodlariga maktabgacha yoshidan e'tibor berish kerak. Istedodli